



---

## MODEL EXAMPLES IN THE POEMS OF ERKIN VOHIDOV

Usarova Laylo Ibragimovna<sup>1</sup>

Ibrohimova Muxabbat Anvarjon qizi<sup>2</sup>

*Finland Pedagogical Institute of Samarkand*

---

### KEYWORDS

Poem, epic, humanity, work,  
life, peace and nation

### ABSTRACT

This article provides information about the life and work of Erkin Vohidov, the importance of them his works today, the relevance and analysis of them.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.4281/zenodo.10247865**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

---

<sup>1</sup> Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Finland Pedagogical Institute of Samarkand, Uzbekistan

<sup>2</sup> Student of the first course of the Finland Pedagogical Institute of Samarkand, Uzbekistan

**ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDA IBRAT NAMUNALARI****KALIT SO'ZLAR/  
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Doston, she'r, insoniyat,  
asar, hayot, tinchlik va xalq

**ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ**

Mazkur maqolada Erkin Vohidovning hayoti va ijodi, asarlarining bugungi kundagi ahamiyati, katta-yu kichikka birdek mosligi va tahlili haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tildi.

Erkin Vohidov taniqli o'zbek shoiri, dramaturgi, adabiy tarjimoni va davlat arbobi. Erkin Vohidovning hayoti juda tahlikali davrlarga ya'ni Ikkinchi Jahon urushi yillariga to'g'ri kelgan. Ota -onasidan erta yetim qolib, tog'asining qo'lida tarbiya oladi. Erkin Vohidov o'sha davr qiyinchiliklarini shunday eslaydi: " Otam frontda ekanida onam qishloq kengashida kotiba bo'lib ishlar, qiyinchilik bilan kun kechirar edik. Jo'xori poyasini shimib tilimni qonatganim, bolalarga qo'shib kunjara yeganim uchun onam yuzimga shapaloq urgani va o'zi kechgacha yig'laganini unutmayman." [1.6]

O'sha davrlarda yashash qanchalik qiyin va og'ir bo'lishiga qaramay, Erkin Vohidov barakali ijod qilgan. O'zbek adabiyotiga o'chmas iz qoldirgan. Ilk ijodini 14 yoshidaligidayoq boshlagan. 1961-yil uning "Tong nafasi" deb nomlangan ilk she'riy to'plami chop etilgan. Uning asarlarida hayotga muhabbat, yovuzlikka, tubanlikka nafrat hissi yaqqol sezilib turadi. Masalan, ilk dostoni " Nido" ni olaylik, dostonda insoniyatga og'ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralanadi.

Erkin Vohidov bu dostonni o'zining hayotidan misol qilib yozgan desak xato bo'lmaydi, chunki uning otasi ham mana shu urush tufayli vafot etgan.

Dostonda tinchlik uchun kurashib jon berganlar nidosi, ularning ortida qolgan farzandlar, onalar, chol-u kampirlar nidosi umumlashib davr nidosiga- tinchlik uchun kurash nidosiga aylanib ketadi. Doston:

Bo'lurmiz gal kelsa har birimizga  
Tinchlik janggohining nidosi,  
Bu senga, bu menga, bu bizga  
Yigirmanchi asr nidosi [2.213]

tarzida yakun topadi. Dostondan anglashilgan ma'no tinchlik uchun, insoniyatning porloq kelajagi uchun kurash nidosi yigirma birinchi asrda ham, undan keyin ham, to tinchlik o'rnatilgunga qadar har bir insonning qalbida jaranglab turmog'i kerak.

Yana bir dostoni "Ruhlar isyoni"ni oladigan bo'lsak, dostonda millatlar, xalqlar, dinlar o'rtasidagi kurash insoniyatga juda katta judoliklar olib kelishi yorqin tasvirlangan. Doston o'tgan asrning birinchi yarmida yashab o'tgan bengal shoiri Nazrul Islomning qahramonona va fojiali taqdiriga bag'ishlanadi. Dostonda Erkin Vohidov nafaqat o'zini, balki barcha erksevar insonlarni qiynayotgan dil tubidagi dard-sitamlarini, orzu-armonlarini birgina Nazrul Islom tilidan baralla aytib bergan. Asarda Nazrul Islom dinlar, xalqlar

o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishga, ularni mustaqillikka olib chiqishga chin dildan harakat qilmasin, ammo xalq buni anglab yetmadi, jonkuyar shoirni xalq tinchini buzuvchi dushmanga chiqardi. Uning shunday shiori bor:

So'yla, inson,  
So'yla, qadding ko'tarib baland.  
Yuksaklikda sening qadding  
Himolay monand [3.65]

Erkin Vohidov bu doston bilan birgina Nazrul Islom orqali vatanimizdagi jadidchilar, ma'rifatchilar hayotini ham yoritib bergan.

Erkin Vohidovning she'rlari insonlarning qalbida ezgu, insoniy tuyg'ularni uyg'otadi, insonni yaxshilikka chorlaydi. Masalan, "Kamtarlik" haqidagi she'ri yoki "Ustozning yosh shoirga degani", "Inson" qasidasi, "O'zbekim" qasidasida bunday xususiyatlar yaqqol ko'rinib turadi. Shu o'rinda yana bir she'rini olsak:

Menga qulluq qilma,  
Yurt tuprog'in o'p,  
Unga qullar emas, fidolar kerak.  
Uning sen-u mendek shoirlari ko'p,  
Buyuk elga endi daholar kerak.  
Qaddingni baland tut,  
Bo'lma sarta'zim,  
Cho'qqi bo'lolmasang, mahkam qoya bo'l.  
Pillapoya bo'ldim senga, azizim,  
Sen ham gal kelganda pillapoya bo'l [2. 216-217]

Ushbu she'r hajman juda qisqa bo'lishiga qaramasdan, mukammal ma'noni beradi, o'quvchi ongiga tez yetib boradi. Bu she'rni yosh avlodga nasihat deb qarashimiz ham mumkin, ya'ni unda kelajak avlodni yaxshilikka, ezgulikka, yuksaklikka chorlash, ularni vatan istiqboli uchun jonini fido qilish ruhida tarbiyalash g'oyalari ilgari surilgan.

She'rda "Cho'qqi bo'lolmasang, mahkam qoya bo'l" degan jumлага e'tibor beradigan bo'lsak, bunda inson ko'zlagan maqsadiga sekinlik bilan erishishi, maqsadga erishish uchun to'xtovsiz harakatda bo'lish maqsadlari ko'zda tutilgan.

Erkin Vohidov asarlarini o'qiganimizda, ularda inson azobini ko'rgandek bo'lamiz. Shoir she'rlarini o'qib go'yo afsonaviy olamga tushib qolgandek bo'lamiz. Shoirning tili erkindir. U har bir so'zni o'z o'rnida ishlatgan, so'zlarni takrorlashdan qochgan. Shu bois shoirning hech bir asari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ko'pgina she'rlari hozirgacha iste'dodli xonandalarimiz tomonidan sevib kuyga solib kelinmoqda. Erkin Vohidov asarlari katta-yu kichikka birdek mosligi bilan boshqa asarlardan alohida ajralib turadi. U qaysi janrda qalam tebratmasin, xalq uni chin dildan sevib mutolaa qiladi. Erkin Vohidov ijodi xalqona, sodda, badiiy jihatdan yuksak sayqal topgani bilan ajralib turadi. Erkin Vohidov qaysi janrga qo'l urmasin, hamisha insonlar dard- u qayg'usi, armonlari, quvonchlarini his etdi. Xalq qalbini ma'naviyat nurlari bilan yoritishni, dardiga

malham bo'lishni o'ziga eng oliy maqsad deb bildi, xalqparvarlikni, yurtparvarlikni va odamiylikni o'ziga shior deb bildi.

Sharq mumtoz she'riyatida qasidalar asosan podshohlar, amir-u xonlar sha'niga, ularning xayrli ishlarini olqishlash maqsadida bitilardi. Erkin Vohidov esa ona xalqi-o'zbekimga bag'ishlab "O'zbekim" qasidasini bitdi.

Tarixingdir ming asrlar  
Ichra pinhon, o'zbekim,  
Senga tengdosh Pomir-u  
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.

So'ylasin Afrosiyob -u  
So'ylasin O'rxun xati,  
Ko'hna tarix shodasida  
Bitta marjon, o'zbekim [4.138]

deya yurtimizning shonli tarixi bilan boshlanadi.

Bu ijodiy jasorat yana shunisi bilan muhimki, u yozilgan paytlari sobiq sho'ro mamlakatidagi barcha millatlar "sovet xalqi" degan umumiy, sun'iy nom bilan atalar, odamlarning muayyan millat vakili ekani bilan faxrlanishiga mutlaqo yo'l qo'ymaydi.[4.142].

Erkin Vohidov haqida taniqli o'zbek xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning shunday so'zlari bor: "Erkin Vohidov she'riyatida adabiy mavzular xazinasiga aniq zamon va makon kaliti orqali kirib boriladi. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o'tgan va o'tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug'yonli, goh iftixorli yo'llarining manzara va ohanglari, sadolari Erkin Vohidov she'riyatida to'la mujassamdir." [3.63]

Haqiqatdan ham, Erkin Vohidov o'zida buyuk jasoratni mujassam eta olgan yangi davr shoiri, xalqning chinakam Qahramonidir. Uning she'rlarida inson o'zining bor murakkabligi, dard-alamlari, shodliklari-yu donoliklari bilan namoyon bo'ladi. U hech bir she'rini shunchaki yozmaydi, balki ularning har birida hayotning muhim masalalari, inson bilan bog'liq haqiqatning yangi-yangi qirralarini kashf etadi. Uning ijodiy kashfiyotlari xalqning qalbida ezgu, insoniy hislarni uyg'otishga, uning ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Hech bir inson uning ijodini qayta-qayta o'rganishdan, she'rlarini yod olishdan zerikmasa kerak. Sababi u o'zining ijodi uchun xalqning taqdiri, turmush tarzini hayotiy material qilib olgan. Shoirning serjilo ijod mahsullari bundan keyin ham yoshlarimiz-millatimiz ma'naviyatini yuksaltirish uchun eng muhim manbalardan biri sifatida boqiylikka muhrlanib qolaveradi.

Erkin Vohidov faqatgina she'r va doston yozish bilan cheklanmagan, uning dramalari, saylanmalari xalq orasida juda mashhurdir. Bundan tashqari tarjimonlik faoliyatida ham yuksak marralarga erishgan. Eng oliy mukofotlardan biri "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan.

Erkin Vohidov asarlarining deyarli hammasi xalqning hayoti, turmush tarzi, qiyinchiliklari va boshqalar haqida yozilgan. U hayoti davomida xalq dardi bilan yashadi,

xalqning quvonchli kunlarida ham, qayg'uli kunlarida ham ularga yelkadosh bo'lib kelgan.  
Xalqimizning suyuqli farzandi 2016-yil 79 yoshida vafot etgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. E. Vohidov "Tarjimayi holim" maqolasi. Toshkent. Yoshlik jurnali. 10-son. 1992
2. Ahmedov Sunnat, Qosimov Begali, Qo'chqorov Rahmon, Rizayev Shuhratilla. Adabiyot(darslik). Toshkent -2020
3. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Adabiyot(darslik)." O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent -2018
4. S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot(darslik). Toshkent. Ma'naviyat. 2017